



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahridinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назолат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiroital paradigmalarning mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi 293 Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari 300 Xodjayeva Matlyuba Rustamovna	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish 304 Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi	304

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARGA TOVUSH YO'NALISHINI ANIQLASHTIRISH METODIKASI

Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li

Qo'qon DU Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning atrof borliqdagi tovushlarga bo'lgan reaksiyalarining rivojlanish qonuniyatlari, tovush manbaining o'ngda yoki chapda ekanligini, so'ngra oldinda yoki orqada joylashganini va nihoyat, o'ng, chap, old va orqa tomondaligini aniqlashni takomillashtirish, bolalarni musiqiy ritmlar bilan tanishtirish maqsadida ularni eshitish orqali farqlashga o'rgatish, shuningdek, bolalarning tevarak-atrofdagi tovushlar haqidagi tasavvurlarini boyitish maqsadida ularni o'zlariga tanish bo'lgan qushlar va hayvonlarning tovushlari bilan tanishtirish hamda ularni eshitib tanishga o'rgatish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tovush, masofa, fazoviy idrok, musiqiy ritm, nonutqiy tovush, chegara, eshitib-ko'rish, og'zaki nutq, shaxsiy rivojlanish.

Abstract: This article presents information about the developmental patterns of reactions to surrounding sounds in children with hearing impairments, methods for improving the ability to determine whether a sound source is located on the right or left, then in front or behind, and finally in the right, left, front, or rear direction. It also discusses teaching children to distinguish musical rhythms through hearing, as well as enriching their understanding of environmental sounds by introducing them to familiar bird and animal sounds and teaching them to recognize these sounds by listening.

Key words: sound, distance, spatial perception, musical rhythm, non-speech sound, boundary, auditory-visual perception, oral speech, personal development.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о закономерностях развития реакций на окружающие звуки у детей с нарушением слуха, совершенствовании навыков определения расположения источника звука справа или слева, затем спереди или сзади, а также определения его нахождения справа, слева, впереди или позади. Рассматриваются вопросы обучения детей различению музыкальных ритмов на слух, а также обогащения представлений об окружающих звуках посредством ознакомления с голосами знакомых птиц и животных и обучения их распознаванию на слух.

Ключевые слова: звук, расстояние, пространственное восприятие, музыкальный ритм, неречевой звук, граница, слухозрительное восприятие, устная речь, личностное развитие.

KIRISH

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda tovush yo'nalishini aniqlashtirish juda muhimdir. Ushbu ishni bajarishda ma'lum bir ketma-ketlikka rioya qilish lozim, ya'ni bunda eng avval tovush manbaining o'ngda yoki chapda ekanligini, so'ngra oldinda yoki orqada joylashganini va nihoyat, o'ng, chap, old va orqa tomondaligini aniqlash lozim. Bu mashqlar yo ovoz kuchaytiruvchi apparatlarsiz (bunda tovush manbai sifatida, odatda, guruhdagi barcha bolalar kamida 1 m masofadan eshita oladigan baraban yoki boshqa biror o'yinchoqdan foydalaniladi), yoki bo'lmasa quloq ortiga taqiladigan ikkita individual eshitish moslamasini qo'llagan holda o'tkaziladi.

Bunda ishni quyidagi shaklda olib borish mumkin.

Bitta bola o'rtada turadi, uning o'ng va chap tomonida bir xil masofada (masalan, 1-2 metr masofada) qolgan bolalar ikki qator bo'lib turadilar. Ikkala qatordagi birinchi bolada baraban yoki childirma, garmon va shu kabilar bo'ladi. Pedagog birinchi qatordagi bolaga baraban chalishni taklif qiladi, so'ngra boshlovchidan (ya'ni o'rtadagi boladan) kim chalganini so'raydi. Boshlovchi nog'ora chalayotgan bolani ko'rsatib, uni chaqiradi. Nog'ora chalgan bola nog'orani yonida turgan bolaga uzatadi va oxirida o'z safiga turadi. Boshqa bola bilan ham xuddi shunday ish olib boriladi.



So'ngra boshlovchining ko'zi ro'molcha bilan bog'lanadi va u nog'orani kim chalganini eshitib aniqlaydi (ya'ni tovush yo'nalishini belgilaydi). Bunday mashq 2-3 marta takrorlanadi, so'ngra yangi boshlovchi (yoki boshlovchilar, chunki ular birdaniga 2-3 bola bo'lishi mumkin) tanlanadi.

Xuddi shunga o'xshash oldinda-orqada, o'ngda-chapda-oldinda-orqada joylashgan tovushning yo'nalishini aniqlash bo'yicha ham ish olib boriladi. Asosiysi, ikki yoki to'rt bola boshlovchidan bir xil masofada bo'lishi va hammasida bir xil ovoqli o'yinchoq (masalan, nog'ora, surnay va h.k.) bo'lishi kerak yoki ovoqli o'yinchoq bitta bo'lishi mumkin, undan ovoz chiqarilgandan so'ng pedagog uni oladi va faqat shundan keyingina boshlovchining ko'zlari bog'langan ro'molchani yechadi.

To'g'ri tanlangan ish rejimi bilan hatto kar bolalar ham ovoz tovushini individual eshitish apparatlari bilan kamida 1,5-2 m masofada eshitadilar. Shuning uchun, agar bolalar binaural, ya'ni quloq orti tipidagi ikkita individual eshitish apparati bilan protezlangan bo'lsa, ularni ovozning yo'nalishini aniqlashga o'rgatish juda muhimdir. Mashqlar xuddi shu shaklda o'tkazilishi mumkin, bunda bolaning ismi aytiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish, tovushlarni farqlash va fazoviy yo'nalishini aniqlash masalalari surdopedagogika sohasida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda nutqni shakllantirish, eshitish qoldiqlaridan samarali foydalanish hamda eshitish idrokini rivojlantirish metodlari yoritilgan.

Xususan, I. Haydarov, D. Muhammadjonova va boshqa tadqiqotchilar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish, eshitish idrokini takomillashtirish hamda korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish masalalarini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida eshitish apparatlaridan foydalanish, nutqiy va nonutqiy tovushlarni farqlash hamda eshitish-ko'rish idrokini rivojlantirishning samarali usullari tavsiya etilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda tovushlarni idrok etish va farqlash masalalari yetarlicha o'rganilganligini ko'rsatadi. Biroq tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasini takomillashtirish va uni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashning pedagogik imkoniyatlari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Asta-sekin bolalarni nafaqat "Kim o'ynadi?" savoliga, balki "Qayerda yangradi?" savoliga ham javob berishga o'rgatish kerak – o'ngda, chapda va hokazo. Bunda bola avval tovushning yo'nalishini ko'rsatishi, so'ngra esa uning nomini aytishi kerak, chunki u yo'nalishni belgilovchi so'zlarni hali o'zlashtirmagan bo'lishi mumkin.

Ta'limning so'nggi yillarida zaif eshituvchi bolalarga nafaqat tovush yo'nalishini aniqlash, balki tovush manbai bo'lgan jarangdor o'yinchoqni tanib olish ham o'rgatiladi. O'yinni o'tkazishda tovush chiqaradigan o'yinchoqlar (masalan, nog'ora, surnay, metallofon) pedagogda bo'lishi kerak. Boshlovchining ko'zi bog'langan, o'qituvchi o'rtadagi bolaning o'ng tomonida (chapda, oldinda, orqada) turgan bolalardan biriga "asbob" beradi. Tovush chiqarilgandan so'ng pedagog o'yinchoqni olib, boshlovchining ko'zini ochadi va "Qayerda va nima tovush chiqardi?" deb so'raydi. Agar bola doirada tovush manbai bo'lishi mumkin bo'lgan o'yinchoqlarni ko'rmagan bo'lsa, ya'ni u tovushni tanib olishi kerak bo'lsa, o'yin murakkablashadi.

Bolalarni musiqiy ritmlar bilan tanishtirish maqsadida ularni marsh, vals, polka (polonez va boshqalar - zaif eshituvchi bolalar uchun) tovushlarini eshitish orqali farqlashga o'rgatiladi. Bu ish musiqa mashg'ulotlari bilan chambarchas bog'liq.

Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa mashg'ulotlarida birinchi marta marsh, vals, polka va boshqa musiqiy ritmlarning yangrashi bilan tanishadilar, ularni eshitish-ko'rish (ya'ni, pedagogning pianino chalishini ko'rish va tinglash) hamda fortepiano ijrosini tinglash paytida eshitish asosida farqlashni o'rganadilar. Musiqa mashg'ulotlari individual eshitish apparatlaridan majburiy foydalanilgan holda o'tkaziladi. Musiqa zalini induksion halqa bilan jihozlash yoki radioprinsipda yoki infraqizil nurlanishda ishlaydigan tizimlardan foydalanish ancha samaraliroqdir.

Pedagogning maxsus frontal mashg'ulotlarida bolalar yozuvlarni tinglash paytida marsh va vals, polka va vals shunga o'xshagan boshqalarning tovushlarini farqlashni o'rganadilar. Bunda jamoa bo'lib foydalaniladigan stasionar tovush kuchaytirgich apparatlardan ham, bolalarning individual apparatlaridan ham (yaxshisi radiotizim yoki infraqizil nurlanish rejimida) foydalaniladi. Proigrivatel (yoki magnitofon) to'g'ridan-to'g'ri apparaturaga (kuchaytirgich yoki uzatgichga) ulanishi kerak, shunda plastinka (yoki magnit lenta)dagi tovush mikrofondan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri bolalarning telefonlariga yetib boradi.

Yozuvni tinglashda marsh, vals, polka va boshqa musiqiy ritmlarni farqlashga kirishishdan oldin pedagog bolalarga plastinka yoki kassetani ko'rsatadi, uning nomini aytadi va harf terish polotnosiga plastinka (kasseta) so'zi yozilgan taxtachani joylashtiradi. Surdopedagog bolalarga shunday deydi: "U yerda (plastinkada) musiqa bor: marsh va vals, polka va vals. Musiqa tinglaymiz". Keyin u proigrivatel yoki magnitofonni yoqadi, musiqa yangraydi (masalan, marsh). Pedagog tegishli lavhani (marsh, vals yoki polka) ko'rsatadi va bolalarni ma'lum

harakatlarni bajarishga undaydi, masalan: marsh – turgan joyda qadam tashlash, vals – qo'llar bilan bosh ustida ravon harakatlarni bajarish, polka – o'tirib turish, polonez – oldinga yoki yon tomonga tantanali yurish. So'ngra bolalar ushbu yozuvni yana bir bor tinglaydilar va uning yangrashi paytida ma'lum bir harakatni bajaradilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarni marsh va vals tovushlari (polkalar va valsar hamda boshqalar) bilan tanishtirgandan so'ng, o'qituvchi ulardan ularni quloq orqali farqlashni so'raydi, har safar "Bu qanday tovush?" yoki "Siz nimani tinglayotgan edingiz?" deb so'raydi. Tovushlar chalinayotganda bolalar mos keladigan harakatlarni bajaradilar va keyin eshitganlarini aytib beradilar. Dastlab bolalar musiqiy ritm tovushlarini akustik jihatdan eng qarama-qarshi bo'lgan ikkita - marsh va vals, keyin tovush jihatidan yaqinroq bo'lganlari - vals va polka orasidan tanlash orqali farqlaydilar. Bolalar bu vazifalarni ishonchli bajara boshlaganlaridan so'ng, ulardan uchta: marsh, vals va polka orasidan tanlash orqali musiqiy ritmlarni farqlash so'raladi.

Har safar bolalardan birortasi xatoga yo'l qo'rganida, pedagog tegishli lavhani (marsh, polonez yoki polka) ko'rsatadi va berilgan asarlarni (uning bir qismini) yana bir bor tinglashga imkon beradi.

Keyinchalik bolalar birinchi marsh, vals, polkani eshitib farqlashni o'rganganlarida, yangi asarlar kiritiladi. Ishga yangi marsh (vals, polka) kiritilganda pedagog uning jaranglash namunasini beradi. Shu maqsadda u tegishli lavhani (masalan, marshni) ko'rsatib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga yangi asarni (uning bir qismini) eshittiradi.

Bir yil davomida bolalar kamida 2-3 xil marsh, vals, polkalarni eshitib farqlashni o'rganib olishlari kerak. Bunda bitta mashg'ulotda turli marshlar, valsar, polkalar yangrashi kerak. Faqat shundagina bolalar tanish marsh (vals, polka)ni emas, balki musiqa asarining xarakterini aniqlaydilar. O'rtacha tez sur'atda ijro etiladigan asarlarni tanlash muhim, aks holda bolalar musiqiy ritmi emas, balki tovushlar tempini bilib oladilar: sekin - vals, tez - polka va h.k. Musiqa xodimi pedagogga ushbu ishni o'tkazish uchun musiqa asarlarini tanlashga yordam berishi kerak.

Keyinchalik musiqiy ritmlar repertuari kengayib boradi. Zaif eshituvchi bolalar uchun bu majburiy talab. Bundan tashqari, ular nafaqat farqlashni, balki kamida to'rtta musiqiy ritmi eshitib tanib olishni (ya'ni nima yangrashini ogohlantirmasdan, tanlovsiz eshitib tanib olishni) o'rganishlari kerak.

Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish bo'yicha frontal mashg'ulotlarda kar va zaif eshituvchi maktabgacha yoshdagi bolalar gramplastinkalarni (magnit tasma) tinglashda cholg'u va vokal musiqasi hamda nutqning yangrashi bilan tanishadilar. Dastlab bolalarni musiqani "jonli" ijro etish, qo'shiq aytish va so'zlash bilan tanishtirish kerak. Buning uchun mashg'ulotga bog'cha xodimlaridan birortasini (masalan, Mastura xolani) taklif qilish mumkin. Mastura xola pianino chaladi (garmonika va h.k.); pedagog bolalardan: "Xola nima qilyapti?" deb so'raydi va o'zi "Chalayapti" deb javob beradi hamda javobni tegishli taxtacha bilan mustahkamlaydi. So'ngra bu ish qo'shiq aytish va so'zlash bilan ham bajariladi va nihoyat bolalarga xolaning o'zi nima qilayotganini aniqlash taklif etiladi: u gapiradimi, o'ynaydimi yoki qo'shiq aytadimi. Dastlab bolalar eshitish-ko'rish idrokida cholg'u va vokal musiqasi hamda nutqni farqlaydilar, keyin esa faqat eshitish orqali farqlaydilar. Bu ish 2-3 mashg'ulot davomida olib boriladi.

Keyinchalik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni gramplastinka yoki magnit lentasini tinglash paytida cholg'u va vokal musiqasi hamda nutqning yangrashi bilan tanishtiradilar. Shu maqsadda yozuv yangrayotgan paytda pedagog tegishli tablichkani ko'rsatadi (gapiradi, ashula aytadi yoki chaladi). Tablichkalar terish polotnosiga joylashtiriladi va albatta tegishli rasmlar bilan mustahkamlanadi. Keyin maktabgacha yoshdagi bolalar cholg'u musiqasi, qo'shiq va nutq tovushlarini eshitish orqali farqlashni o'rganadilar. Dastlab ikkitasini (masalan, cholg'u musiqasi - nutq, cholg'u musiqasi - kuylash) tanlashda, so'ngra uchtasini tanlashda. Pedagog tegishli yozuvni (masalan, suhbatni) qo'yadi va u yangrayotgan paytda bolalardan "Nima qilyapti?" deb so'raydi va ular javob beradilar.

Agar xatoga yo'l qo'yilsa, pedagog yozuvni o'chirmasdan, tegishli taxtacha va rasmni ko'rsatadi (masalan, gapiradi), so'ngra bolalarga tovushlarni (masalan, cholg'u musiqasi va nutqni) eshitish orqali farqlashni yana bir bor taklif qiladi.

Dastlab maktabgacha yoshdagi bolalar cholg'u va vokal musiqasi hamda nutqning birinchi (aniq) yozuvlarini eshitib farqlashni o'rganadilar, ular ushbu vazifani uddalay boshlaganlarida esa yangilari ham qo'shiladi. Yil davomida ishga kamida 2-3 ta yozuv kiritilishi kerak. Bitta mashg'ulotda turli yozuvlardan foydalaniladi.

Bolalar berilgan topshiriqni ishonch bilan bajara boshlaganlarida, musiqa jo'rliqidagi qo'shiq yozuvlarini taklif qilib, uni murakkablashtirish mumkin, bunda ikkinchisi ovoz jarangini bo'g'ib qo'ymasligiga e'tibor berish kerak.

Bolalarning tevarak-atrofdagi tovushlar haqidagi tasavvurlarini boyitish maqsadida ularni o'zlariga tanish bo'lgan qushlar va hayvonlarning tovushlari bilan tanishtirish hamda ularni eshitib tanishga o'rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar bu mashqlarni juda yaxshi ko'radilar, lekin ular bog'chada ham, uyda ham kamdan kam o'tkaziladi, bu texnik qiyinchilik bilan bog'liq. O'tgan yillarda turli xil shovqinli tovushlar (shu



jumladan, qushlar va hayvonlarning ovozlari) yozilgan gramplastinkalar teatrlar uchun ishlab chiqarilgan va JST do'konlarida sotilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun mo'ljallangan ko'plab maktablarda ular mavjud va eng oddiy usul plastinkalardan magnit tasmaiga qayta yozishdir. Radio va kinostudiyalarning fonotekalariga ham murojaat qilish mumkin.

Ish uslubi quyidagicha olib boriladi. Pedagog tegishli o'yinchoq yoki rasmni (masalan, mushukni) ko'rsatadi va bolalardan uning qanday miyovlashini so'raydi. Bolalar tomonidan mushuk (it, tovuq) ovozi eshittirilgandan so'ng yozuv yoqiladi. Xuddi shu tarzda pedagog bolalarni boshqa hayvon yoki qushning ovozi bilan tanishtiradi. Tegishli o'yinchoqlar stol ustiga qo'yiladi, rasmlar terish polotnosiga yoki doskaga joylashtiriladi. So'ngra pedagog bolalarga kimning ovozini eshitayotganliklarini bilib olishni taklif etadi. Agar xatoga yo'l qo'yilsa, u yozuvni o'chirmasdan, tegishli o'yinchoq yoki rasmni ko'rsatadi.

Dastlab bolalar cheklangan (2-3 tadan) tanlovda eng qarama-qarshi ovozlarni farqlaydilar, masalan: sigirning ma'rashi - qizilishtonning taqillashi (kakku ovozi), itning xurishi - mushukning miyovlashi - qurbaqaning vaqillashi va hokazo. Asta-sekinlik bilan tanlov kengayib boradi.

Bu mashqlarni bolalar u yoki bu hayvonlar yoki qushlar bilan muomala qilishda ma'lum tajribaga, ular haqida tasavvurga ega bo'lgan paytdan, ya'ni 4-5 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Yillar davomida maqsadga yo'naltirilgan ish davomida kar maktabgacha yoshdagi bolalar 3-4 va undan ortiq qushlar va hayvonlarning ovozlarni ajratishni o'rganishlari mumkin.

Zaif eshituvchi bolalar esa ularni nafaqat 5-7 tadan ko'proq tanlash orqali taniydilar, balki ularni eshinish orqali tanib olishni ham o'rganishlari kerak, ya'ni qaysi qushlar va hayvonlarning ovozi chiqishi haqida ogohlantirmasdan, ularning tovushini tanlamasdan tanib olishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutqsiz va nutq signallarini eshitib idrok qilishga o'rgatish asosan maxsus frontal mashg'ulotlarda olib boriladi. Ularda egallangan ko'nikmalarni bolalarning kundalik hayotida mustahkamlash juda muhimdir. Ularning e'tiborini doimo o'zlariga tanish bo'lgan tovushlarga, bular tabiatdagi qushlar va hayvonlarning ovoziga, radio va teleko'rsatuvlardagi musiqa, qo'shiq va nutqlarning yangrashiga hamda hokazolarga qaratish kerak. Xilma-xil o'yinlarda bolalarga tushunarli bo'lgan tovush signallaridan foydalanish kerak, masalan, idrok qilingan tovush signallari sonini kartochkaning orqa tomonida tasvirlangan doirachalar soniga yoki u yoki bu kartochka-topshiriqda tasvirlangan tovush chiqarayotgan o'yinchoqning signaliga bog'lab, kerakli kartochka-topshiriqni tanlash muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "Methods Of Teaching Pronunciation To Children With Hearing Impairment." // E Conference World. No. 3. 2023.
2. Islomjon, Haydarov, and Tursunova Nilufar. "PRONUNCIATION LESSONS FOR HEARING-IMPAIRED CHILDREN." E Conference World. No. 3. 2023.
3. Islomjon, Haydarov. "Excursion Lesson, The Role Of Students With Hearing Impairment In The Study Of Natural Science." Onomázein 62 (2023): December (2023): 1958-1963.
4. Islomjon, Haydarov, and Nabiyeva Nozimakhan. "System Of Development Of Auditory Perception." //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 1096-1101.
5. Islomjon, Haydarov. "Periods Of Teaching Pronunciation."// Open Access Repository 9.11 (2023): 221-224.
6. Islomjon, Haydarov, and Odilova Rushanabonu. "Oral Speech And Its Development Features."// Open Access Repository 9.11 (2023): 206-209.
7. Islomjon, Haydarov, and Odiljonova Saminaxkan. "Differentiation Of Sentences In School For Hearing Impaired Children The Content And Order Of The Work Carried Out On." //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 1071-1075.
8. Islamjan, Haydarov. "Formation Of Environmental Competence Of Hearing-Impaired Students In Extracurricular Activities In Science."// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 536-540.
9. Islomjon, Haydarov. "In this article, the importance of excursions in specialized educational institutions for students with hearing impairments and ways to shape their knowledge of Natural Science through excursions. Information is provided about the corrective-pedagogical o." Onomázein hosts unpublished articles derived from scientific research 1963 (1958).
10. Islomjon, Haydarov. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar hissiyotining o'ziga hos xususiyatlari."// Innovative Developments And Research In Education 3.25 (2024): 112-116.
11. Dilafruz, M. "Eshitishda nuqsonlari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini maktabga tayyorlash - pedagogik va psixologik muammo sifatida."// xalqaro jurnal 4.11 (2024): 87-89.
12. Farxodjanovna, Muhammadjonova Dilafruz. "Eshitish qobiliyati zaif bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion pedagogik ishlar." Xalqaro pedagogika jurnali 5 (2025): 7-10.
13. Muhammadjonova, Dilafruz. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." Science promotion (2023).
14. Muhammadjonova, Dilafruz. "Issues Of Effective Organization Of Teaching Weak Hearing Children To Write."// Science promotion (2023).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.